Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan paraarmrestlingchi talabalarni musobaqa oldidan texnik tayyorgarligini takomillashtirish	617
<i>Karimov Faxriddin Xurramovich</i>	
Developing Critical Reading Skills Through Content-Based Instruction	621
<i>Mekhmunkulov Burkhon Ma'ruf ugli</i>	
Tog'li va shahar hududida ta'lim oluvchi tinglovchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini taqqoslash	626
<i>Mirjamolov Sirojiddin Xayriddinovich</i>	



Korxona va tashkilotlarda ishchi-xodimlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish asosida ish faolligini oshirish texnologiyasi	630
Muxametov Axmad Muxametovich	
Xalq ta'limi bo'limi rahbarlarining xalqaro baholash tizimini O'zbekiston ta'limiga moslashtirishdagi o'rni ...	634
Namazova Manzura Urakovna, Nodirov Dilmurod	
Digital Reading vs. Print Reading: Effects on EFL Learners' Reading Speed and Understanding	639
Rustambekova Ozoda Dilshod kizi	
Yoshlarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishini oshirishning samarali usullari	644
To'rayev Farrux Hakim o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalaridagi talaba-qizlarni dzyudo sport turi texnik harakatlariga o'rgatish texnologiyasi	647
Toshboyeva Munisa Bozor qizi	
Sport mashg'ulotlarda jarohatlarning oldini olish va xavfsizlik choralari	650
Xudoyberdiyeva Elmira Botir qizi	
Задачи изучения и преподавания русского языка и литературы в общеобразовательных школах с узбекским языком обучения	654
Ахмедов Нумон	
Multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik materiallar yaratish	658
Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Rahmonov Ziyodillo Xusanovich	
Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi (immitativ-taqldiy usul misolida)	661
Jo'rayeva Dilafruz Nuriddinova	
O'simliklarning issiqqa va qurqoqchilikka chidamliligi	664
M. Nazarov, G. Maxsudova, T. Usmonova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tayyorgarligi hamda psixik jarayonlar ko'rsatkichlarining tahlili	667
Masharipova Miyassar Ichanovna	
Bo'lajak tarbiyachilarni "Tabiat bilan tanishtirish" fani asosida tarbiyaviy faoliyatini raqamlashtirish	675
Saydullayeva Barchinoy Abduxalil qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'lim sharoitida faoliyat yuritishga tayyorlash muammolari	678
Shaxnoza To'xtiyarova	
Raqamli ta'lim muhitida o'quv resurslarini yaratishning raqamli-didaktik mazmunini rivojlantirish metodikasi	681
Shirinov Feruzjon Shuxratovich	
Umumta'lim maktablarining 9-sinf fizika darslarida tovush hodisasini anglashni tajriba orqali rivojlantirish	684
Sobirov Avazbek Anvarovich	
Emotsional intellekt tushunchasining nazariy asoslari va rivojlanish bosqichlari	689
Tajiboyeva Odinoxon Rustamjon qizi	
Portret janrini o'qitishda individual ta'lim va fanlararo integratsiyaning nazariy-metodologik asoslari	693
Xudaynazarova Ug'ilo'y Sharifovna	
Aqli zaif bolalarda sensomotor rivojlanishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	696
Xudoyberdiyeva Ra'no Arabboyevna	
Yuqori sinf o'quvchilarida estetik madaniyatni tarbiyalash metodikasi (tarbiya fani misolida)	700
Yoqubjonova Shodiya G'ayratovna	
Chizmachilik fanining turmush tarzimidagi ahamiyati va o'rni	704
Achilov Nurbek Norboy o'g'li	
O'quvchilarni musiqa san'atiga qiziqtirishda musiqa psixologiyasining roli	707
E'zoxon Qobilova	
Bolalar adabiyotini o'qitishda milliy qadriyatlarni singdirish va kreativ kompetensiyani rivojlantirishning innovatsion yo'llari	710
G'aniyeva Shodiya Azizovna, Abdullayeva Madinaxon Madaminjon qizi	
Boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan mashqlarni til kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida tahlil qilish	713
G'anijonova Sarvinov, Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna	
O'quvchilarda global o'qish savodxonligini shakllantirishda milliy matnlar va qadriyatlar asosidagi pirls tipidagi topshiriqlar yaratish tajribasi	717
Ikromova Gulhida Axmadillo qizi, G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi	



Bo'lajak pedagoglarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish texnologiyalari pedagogik muammo sifatida	720
Karribayeva Lobarxon Fayzulla qizi	
Ilmiy matnni o'qib tushunish va baholashda nostandart testlardan foydalanish bosqichlari.....	724
Komilova Lola Nasilloevna	
Dizatriyada tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni o'yin orqali rivojlantirish texnologiyalari.....	728
Mamatova Muzayyana Batirovna	
Turkiy bitiklarda nomlar tizimi va ularning semantik xususiyatlari	732
Munisa Shavkatova	
Kommunikativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	736
Muqimova Dilbarxon Xusanboyevna	
Sportda liderlik va jamoaviy ruhni shakllantirish metodlari	740
Nazarov Nursultan Safarbayevich	
Dars mashg'ulotlarini tashkil etishda loyihalashtirishning o'rni va ahamiyati.....	744
Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich	
Ta'limda innovatsion kompetentlikning ahamiyati.....	748
Qobilova Aziza Tursunovna	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali bolalarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish	752
Salimova Aziza Sharipovna	
Xorijiy tillarni o'qitishda masofaviy ta'limning imkoniyatlari va muammolari	755
Sidiqova Ma'mura Adhamjonovna	
Til kompetentligini rivojlantirishda vizual materiallardan foydalanishning o'rni (boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish texnologiyasi misolida)	758
Zakirova Sohila Muhtoraliyevna, Sobirova Diloromxon Ma'rufjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi koxlear implantli bolalarni eshituv - nutqiy reabilitatsiyasi	761
Xamraeva Dildora Baxadirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni kelib chiqish sababalari va korreksion ishlar	766
Xolboeva Ruxsora Egamberdiyevna	
Эффективность арт-терапии в обогащении словарного запаса у детей с ЗПР	770
Наган Олеся Талгатовна	
Autizmlı bolalar nutqini rivojlantirishda o'yinning ahamiyati.....	775
Nishonova Sevara	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchılarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy nazariy asoslari (XIX–XXI asrda).....	778
Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya	
Autizmlı bolalarda kommunikativ muloqotni shakllantirish texnologiyalari.....	781
Raxmonova Manzura Maxmudovna	
Talabalarda ma'naviy ongning rivojlanishidagi milliy dunyoqarash va tafakkur uslubining shakllanish omillari	785
Usarova Nigora Berdiyarovna	
PIRLSda qo'llaniladigan yuqori darajadagi tushunish ko'nikmalari (interpretatsiya, sintez) va ularni muloqotga o'rgatishda qo'llash	788
Choriyeva Valida Abdug'ani qizi, Shodiyev Faxriddin Teshayevich	
Prokrastinatsiya fenomenining retrospektiv talqini	795
M. L. Aripova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda millatlararo totuvlikni shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni.....	799
Xudoyberdiyeva Madina Abdulbaki qizi	



MAKTABGACHA YOSHDAGI KOXLEAR IMPLANTLI BOLALARNI ESHITUV - NUTQIY REABILITATSIYASI

Xamraeva Dildora Baxadirovna
Samarqand Kimyo xalqaro universiteti
Logopediya yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada eshitish qobiliyatini yo'qotgan shaxslar uchun innovatsion yechim bo'lgan koxlear implant (KI) tizimi, uning tuzilishi, ishlash mexanizmi hamda jarrohlik va reabilitatsiya bosqichlari yoritilgan. Koxlear implant eshituv nervini elektr stimulyatsiya qilish orqali tovush signallarini miyaga uzatadi, bu esa kar yoki chuqur eshitish nuqsонiga ega insonlarga tovush va nutqni eshitish imkonini beradi. Maqolada zamonaviy implant tizimlari, ularning texnik xususiyatlari, foydalanish sharoitlari hamda reabilitatsiya jarayonining individual yondashuvga asoslanishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: koxlear implant, eshituv nervi, eshitish apparati, eshitish reabilitatsiyasi, surdopedagog, audiolog, nutq protsessori, elektrodlar tizimi, eshitish idroki, kar bolalar.

Abstract: This article discusses the cochlear implant (CI) system as an innovative solution for individuals with hearing loss. It describes the structure, operating mechanism, as well as the surgical and rehabilitation stages of cochlear implantation. The cochlear implant transmits sound signals to the brain by electrically stimulating the auditory nerve, enabling deaf or severely hearing-impaired individuals to perceive sounds and speech. The paper provides information about modern implant systems, their technical characteristics, usage conditions, and the importance of individualized approaches in the auditory-verbal rehabilitation process.

Key words: cochlear implant, auditory nerve, hearing aid, auditory rehabilitation, surdopedagogue, audiologist, speech processor, electrode system, auditory perception, deaf children.

Аннотация: В данной статье рассмотрена система кохлеарного импланта (КИ) как инновационное решение для лиц с потерей слуха. Описаны структура, принцип работы, хирургические и реабилитационные этапы имплантации. Кохлеарный имплант передаёт звуковые сигналы в мозг путём электрической стимуляции слухового нерва, что позволяет глухим и слабослышащим людям воспринимать звуки и речь. В статье приведены сведения о современных моделях имплантов, их технических характеристиках, условиях эксплуатации и индивидуальных подходах в процессе слухоречевой реабилитации.

Ключевые слова: кохлеарный имплант, слуховой нерв, слуховой аппарат, слуховая реабилитация, сурдopedagog, аудиолог, речевой процессор, система электродов, слуховое восприятие, глухие дети.

KIRISH

Koxlear implant lotincha "cochlear" so'zidan olingan (koxlea – "chig'anoq" degan ma'noni bildiradi). Eshitish sezgilari hosil bo'luvchi eshituv nervi orqali miyaga boruvchi tovushlarni qabul qilib, ularni elektr impulslari ko'rinishida yetkazib beruvchi eshitish organi shunday ataladi. Kar insonlarda chig'anoqdagi ushbu retseptorlar nobud bo'ladi va buning oqibatida tovushlar miya markazlariga yetib bormaydi, natijada inson eshitmaydi.

Bunday holatlarda tovushni kuchaytirib beruvchi oddiy eshituv apparatlari foyda bermaydi. Ammo bunday bemorlarga koxlear implant – ya'ni xirurgik operatsiya yordam berishi mumkin. Bu jarayon davomida kar insonning ichki qulog'idagi (chig'anoqdagi) eshituv nerviga elektr stimulyatorlar orqali tovush va nutqni qabul qiluvchi elektrodlar tizimi joylashtiriladi.

Koxlear implant – bu faqat xirurgik operatsiya emas, balki murakkab faoliyat tizimidir. U quyidagi uch bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Operatsiyagacha bo'lgan tashxis qo'yish va bemorlarni tanlash;
2. Xirurgik operatsiya;
3. Koxlear implant o'rnatilgan bemorlarning operatsiyadan keyingi eshituv-nutqiy reabilitatsiyasi.



Quyida bemorlar va mutaxassislar tomonidan tez-tez beriladigan savollarga qisqacha javoblar keltirilgan. Ushbu ma'lumotlar surdopedagoglarga bemorlarga implantatsiya jarayoni va uning imkoniyatlari haqida tushuntirish ishlarini olib borishda yordam beradi.

Koxlear implant ikki taraflama kar yoki eshitish qobiliyati chuqur yo'qolgan insonlarga o'rnatiladi. Bunday hollarda eng zamonaviy va to'g'ri tanlangan eshituv apparatlari ham yetarli samara bermaydi. Operatsiyani o'tkazish to'g'risida qaror koxlear implant markazidagi maxsus komissiya tomonidan qabul qilinadi. Har bir bemor uchun qaror individual kompleks tekshiruv natijalari asosida belgilanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Koxlear implantatsiya (KI) texnologiyasi eshitishda og'ir darajadagi nuqsoni bo'lgan bolalarda eshituv funksiyasini tiklashda eng samarali tibbiy-texnik yondashuvlardan biridir. So'nggi yillarda ushbu texnologiya orqali maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiy rivojlanishini ta'minlash masalasi logopediya, surdopedagogika va nevropsixologiya fanlarining dolzarb yo'nalishiga aylandi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, koxlear implantatsiyadan so'ng eshituv va nutqning shakllanishi nafaqat texnik omillarga, balki reabilitatsiya jarayonining pedagogik, psixologik va oilaviy qo'llab-quvvatlash darajasiga ham bevosita bog'liqdir (Boothroyd, 2004; Nikolopoulos, 2011).

Koxlear implantning pedagogik ahamiyati

Koxlear implantlar orqali eshitish imkoniyatini tiklash natijasida bola nutqni eshitish orqali idrok etish, fonematik eshituvni rivojlantirish, so'z boyligini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. A. Ling (2002) va L. Ching (2013) tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, implantatsiya qanchalik erta yoshda amalga oshirilsa, bolaning nutqni shakllantirishdagi muvaffaqiyati shunchalik yuqori bo'ladi. Shu sababli, maktabgacha yosh koxlear implant foydalanuvchilari uchun reabilitatsiyaning boshlang'ich bosqichi sifatida alohida e'tibor talab qiladi.

Eshituv-nutqiy reabilitatsiya jarayonining xususiyatlari

Eshituv-nutqiy reabilitatsiya bu – eshitishning tiklanishi bilan bir qatorda nutqiy eshituv, talaffuz, intonatsiya, muloqot kompetensiyasini shakllantirish jarayonidir. J. Geers (2016) ma'lumotlariga ko'ra, implantatsiyadan so'ng dastlabki 6–12 oy ichida bolalar tovushlarga reaksiya bildiradi, ammo nutqni to'liq idrok etish uchun 2–5 yilgacha vaqt talab qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Koxlear implant (KI) atrof-muhitdagi tovushlar va nutqni kuchsiz elektr impulslar ketma-ketligiga aylantiradi. Ushbu impulslar eshituv nervini stimulyatsiya qiladi va ular orqali signallar miya eshitish markazlariga uzatiladi. Miya esa bu impulsni nutq, musiqa va boshqa tovushlar sifatida qayta ishlaydi va idrok etadi.

Koxlear implant ikki asosiy qismdan iborat: ichki va tashqi qismlar.

Ichki qism jarrohlik yo'li bilan bemorning ichki qulog'iga o'rnatiladi. U bosh terisi ostida joylashgan bo'lib, tashqaridan ko'rinmaydi.

Tashqi qism esa quloqqa taqiladi va uxlash yoki suvga tushish vaqtida yechib qo'yiladi – bu jihatdan u odatiy eshitish apparatiga o'xshaydi. U quloq orqasiga taqiladigan kichik qurilma shaklida bo'ladi va soch bilan yopilsa, tashqaridan deyarli sezilmaydi.

Koxlear implantning energiyasi oddiy almashtiriladigan batareyalar yoki qayta zaryadlanadigan akkumulyatorlar yordamida ta'minlanadi.



1-rasm: Koxlear implant

Koxlear implant (KI) – bu atrof-muhitdagi tovushlar va nutqni kuchsiz elektr impulslar ketma-ketligiga aylantiruvchi elektron qurilma bo'lib, u eshituv nervini stimulyatsiya qiladi. Ushbu impulslar miya eshitish markazlariga uzatiladi va miya ularni nutq, musiqa hamda boshqa tovushlar sifatida qabul qiladi.



Hozirgi vaqtda dunyo bo'yicha koxlear implantatsiya tizimlarini ishlab chiqaruvchi uchta yirik kompaniya faoliyat yuritmoqda:

1. "Cochlear" (Avstraliya) – "Nucleus", "Freedom" modellari;
2. "MED-EL" (Avstriya) – "Combi-40/40+", "Tempo+", "Opus", "Duet" modellari;
3. "Advanced Bionics" (AQSh) – "Clarion", "Harmony", "Auria" modellari.

Turli ishlab chiqaruvchilarning KI modellarida elektrodlar soni, nutq signalini qayta ishlash strategiyasi va boshqa texnik ko'rsatkichlar bilan farqlar mavjud. Elektrodlar soni hamda signalni qayta ishlash strategiyasi – koxlear implantning asosiy texnik parametrlari bo'lib, ular nutqning aniqligi va tushunarlik darajasini belgilaydi.

Zamonaviy KI tizimlari eshitilayotgan nutqni yuqori aniqlik bilan farqlash va tovushlarni tabiiyroq qabul qilish imkonini yaratadi. Shu sababli, ular eshitish qobiliyati butunlay yo'qolgan bemorlar uchun ham samarali reabilitatsiya vositasi hisoblanadi.



2-rasm: Zamonaviy KI tizimlari:

A – implantatsiya qilinadigan ichki qism: bu qism elektrodlar zanjiri hamda antennali qabul qiluvchi qurilmani o'z ichiga oladi va bosh terisi ostiga joylashtiriladi;

B – tashqi qism: bu qismga nutq protsessori, magnitli radiouzatgich va mikrofon kiradi.

Koxlear implantatsiya umumiy narkoz ostida amalga oshiriladi va odatda 2–3 soat davom etadi. Ushbu operatsiya miya emas, balki quloq sohasida bajariladi, shuning uchun uni LOR-hirurg maxsus otorinolarinologik klinikada o'tkazadi.

Ko'pchilik bemorlar, jumladan bolalar ham, narkoz ta'siri tugaganidan so'ng o'sha kunning o'zidayoq turib yurishlari va muloqot qilishlari mumkin. Ertasi kuni bemor deyarli cheklovlarisiz harakatlana oladi. Bosh sohasiga qo'yilgan bog'lam bir necha kun davomida saqlanadi. 7–10 kun o'tgach, choklar olinadi va bemor kasalxonadan chiqariladi.

Koxlear implant (KI) umr bo'yi foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lib, ishlab chiqaruvchi kompaniyalar uning ichki qismiga odatda 10 yillik kafolat beradi. Shunga qaramay, 25 yildan ortiq vaqt davomida muvaffaqiyatli foydalanayotgan bemorlar ham mavjud.

Eshitish faqat KI ning tashqi qismi – nutq protsessori ulangandan so'ng tiklana boshlaydi. Ushbu protsessor, odatda, operatsiyadan 4–6 hafta o'tgach, jarrohlik joyi to'liq bitganidan so'ng mutaxassis tomonidan sozlanib ulanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Koxlear implant (KI) orqali eshitish nutq protsessori ulangandan so'ng boshlanadi. Biroq dastlab bemor eshitayotgan tovush va nutq unga tanish emas bo'ladi. Sababi, KI tomonidan qayta ishlangan tovush signallari sog'lom eshitish tizimi, xususan ichki quloqdagi ulitka orqali qabul qilinadigan tabiiy tovushlardan sezilarli darajada farqlanadi.

Shu sababli bemorni eshitish va nutqni tushunishga o'rgatish uchun maxsus eshitish-nutq reabilitatsiyasi dasturi qo'llaniladi. Bu jarayonga quyidagilar kiradi:

- nutq protsessorining individual sozlanishi,
- surdopedagog bilan reabilitatsion mashg'ulotlar,
- oila a'zolarining faol ishtiroki va pedagogik ko'rsatmalarga amal qilishi.



Agar bola operatsiyagacha eshitish moslamasini umuman taqmagan yoki muntazam taqmagan bo'lsa, dastlabki 1–2 hafta mobaynida tovushlarga hech qanday javob bermasligi mumkin. Ammo asta-sekin kuchli tovushlarga, so'ngra inson ovozigacha va boshqa tovushlarga reaksiyalar paydo bo'ladi.

Bu davrda ota-onalarning faol yordami muhim ahamiyatga ega. Ular bolaning e'tiborini tovushlarga qaratish, unga qiziqish uyg'otish orqali reabilitatsiya jarayonini tezlashtiradilar. 2–6 oy davomida bola ba'zi so'zlar va gaplarni ajrata hamda tushuna boshlaydi.

Operatsiyagacha eshitish apparatidan foydalangan bolalar ham KI orqali dastlab tovushlarni boshqacha idrok etadilar. Bu tabiiy holat bo'lib, 1–2 haftalik mashg'ulotlardan so'ng ular tanish so'zlarni farqlay boshlaydilar va tez orada yangi so'z va tovushlarni ajratishni o'zlashtiradilar.

Bolaning tovush va nutqni anglash darajasi quyidagi omillarga bog'liq:

- implantatsiya o'tkazilgan yosh,
- operatsiya vaqtida bolaning eshitish va nutq rivojlanish darajasi,
- reabilitatsiya mashg'ulotlarining intensivligi,
- qo'shimcha rivojlanish buzilishlarining mavjudligi yoki yo'qligi.

Maktab yoshidagi yoki undan katta bolalar ham KI ni doimiy taqib, muntazam reabilitatsiya mashg'ulotlarida qatnashsalar, kundalik hayotda ishlatiladigan so'z va iboralarni eshitish va ko'rish orqali tanib, cheklangan nutq doirasida mulqot qilishni o'rganishlari mumkin.

KI foydalanuvchilari, jumladan bolalar va kattalar:

- mobil telefonlardan foydalanishlari mumkin;
- samolyotda bemalol uchishlari va ko'plab tibbiy muolajalardan o'tishlari mumkin;
- homiladorlik va farzand ko'rish jihatidan cheklovlariga ega emaslar.

Biroq magnit-rezonans tomografiya (MRT) hamda ayrim magnit yoki elektroterapiya usullarida ehtiyot choralariga amal qilish zarur.

Audiologning vazifalari

1. Telemetriya, yoqish va KI protsessorini dasturlash.
2. Protsessor sozlash parametrlarini bolaning reaksiyalari, surdopedagog va ota-onalar kuzatuvlari asosida aniqlash.
3. Har bir chastota diapazonida nutq tovushlarini qabul qilish imkonini beruvchi optimal sozlashni ta'minlash.
4. Elektr stapediya refleksini qayd etish va maksimal qulaylik darajasini aniqlash.
5. Erkin maydonda tonal audiometriya o'tkazish.
6. Eshitish apparatini qayta sozlash.
7. Ota-onalarga protsessor boshqaruvi va holatini nazorat qilishni o'rgatish.

Surdopedagogning vazifalari

1. Har xil kuchaytirish darajasida nutqqa oid bo'lmagan va nutqqa oid tovushlarni farqlash mashg'ulotlarini tashkil etish.
2. Tovushlarga ixtiyoriy va ixtiyorsiz reaksiyalarni baholash, tovushlarni farqlash masofasini aniqlash.
3. Og'zaki nutq va eshitish nazoratini rivojlantirish.
4. Ota-onalarga bolada eshitish idroki va nutqni rivojlantirish usullarini o'rgatish.
5. Audiologga bolaning eshitishdagi o'zgarishlari haqida muntazam ma'lumot berish.

Ota-onalarning vazifalari

1. Bolada atrof tovushlariga qiziqish uyg'otish va tovushlarni tanishga o'rgatish.
2. Nutq va ovozli reaksiyalarni rivojlantirish.
3. Bolaning noqulay tovush sezgilari yoki o'zgarishlarini mutaxassislariga yetkazish.
4. Nutq rivojlanishi haqidagi kuzatuvlarni audiolog va surdopedagog bilan baham ko'rish.



Kamdan-kam hollarda, ulitka rivojlanishidagi anomaliya yoki ossifikatsiya mavjud bo'lsa, bemorda elektr yoki tovush stimullariga javob kuzatilmashligi mumkin. Bunday vaziyatda KI dan 2–3 hafta foydalanilgach, boshqa sozlash parametrlarini tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha yoshdagi ko'xlear implantli bolalarda eshituv va nutqni rivojlantirish – bu tibbiy, psixologik va pedagogik yondashuvlarni o'zida mujassam etgan kompleks reabilitatsiya jarayoni hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'xlear implantatsiya erta yoshda amalga oshirilgan taqdirda, bolaning nutqiy idrok, talaffuz, so'z boyligi va muloqot ko'nikmalari tezroq shakllanadi.

Eshituv-nutqiy reabilitatsiyaning muvaffaqiyati bir nechta omillarga bog'liq:

- operatsiya o'tkazilgan yoshga;
- reabilitatsiya mashg'ulotlarining tizimliliigi va intensivligiga;
- surdopedagog, audiolog, logoped hamda ota-onalarning hamkorligiga;
- bolada motivatsiya va emotsional qo'llab-quvvatlovning mavjudligiga.

Maktabgacha yoshdagi davrda eshituv va nutqni shakllantirish uchun musiqali-harakatli o'yinlar, nutqiy mashg'ulotlar, fonematik eshituvni rivojlantirish usullari, vizual va eshituv tayanchlariga asoslangan metodlar samarali natijalar beradi. Reabilitatsiya jarayonining asosiy maqsadi – bolaning tabiiy muloqot muhitida mustaqil, faol shaxs sifatida ijtimoiy moslashuvini ta'minlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Содержание психолого-педагогической помощи детям после кохлеарной имплантации и их семьям [Текст]: сборник материалов и методических рекомендаций / сост.: О. Л. Беляева, Л. В. Скаун. - Красноярск: КГПУ им. В. П. Астафьева, 2017. - 134 с.
2. Королева И.В. , Статья: Логопедическая реабилитация детей с кохлеарными инплантатами. Россия, Санкт-Петербург.2015
3. Королева И.В. Кохлеарная имплантация и дети. Все самое важное для родителей. – Санкт-Петербург: "Умная Маша", 2010.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.